



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## “KOMMUNIKATSIYA”

**Rajabova Aziza G‘ulom qizi**

*Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada kommunikatsiya tushunchasining mohiyati, uning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, kommunikatsiyaning asosiy turlari, shakllari hamda samarali muloqotning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Maqolada insonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi, fikr bildirish va o‘zaro tushunish jarayonlarining kommunikatsiya orqali amalga oshishi oddiy misollar yordamida tushuntirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Kommunikatsiya, muloqot, axborot almashinuvi, nutq, ijtimoiy munosabatlar, muloqot madaniyati, samarali muloqot, insonlararo aloqa.*

**Abstract.** *This article highlights the essence of the concept of communication, its role in society and human life. It also discusses the main types and forms of communication, as well as the importance of effective communication. The article explains the processes of information exchange, expression of opinions and mutual understanding between people through communication using simple examples.*

**Keywords:** *Communication, dialogue, information exchange, speech, social relations, culture of communication, effective communication, interpersonal communication*

**Абстрактный.** *В данной статье освещается суть понятия коммуникации, её роль в обществе и человеческой жизни. Также рассматриваются основные виды и формы коммуникации, а также важность эффективной коммуникации. В статье на простых примерах объясняются процессы обмена информацией, выражения мнений и взаимопонимания между людьми посредством коммуникации.*

**Ключевые слова:** *Коммуникация, диалог, обмен информацией, речь, социальные отношения, культура коммуникации, эффективная коммуникация, межличностная коммуникация.*

Kommunikatsiya – bu xabarni uzatish, fikr va ma’lumot almashish, ya’ni muloqot qilish jarayonidir. U jamiyatda aloqa o‘rnatuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Kommunikatsiya verbal (so‘z orqali) va noverbal (nutqsiz, imo-ishora va boshqa belgilar orqali) bo‘lishi mumkin. Masalan, ish joylarida shovqin ko‘p bo‘lganda, ishchilar ko‘pincha imo-ishoralari yordamida muloqot qilishadi. Shu tariqa, kommunikatsiya har doim nutq orqali emas, balki turli vositalar orqali ham amalga oshiriladi. “Kommunikatsiya” ko‘p ma’noli termin bo‘lib, u “ommaviy kommunikatsiya (axborot) vositalari” birikmasida matbuot, radio va televideniye kabi axborot manbalarini, texnika sohasida esa aloqa tarmoqlarini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Sotsiolingvistikada esa “kommunikatsiya” tushunchasi “muloqot” so‘zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Kommunikatsiya xabarni uzatish, fikr va



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ma'lumotlar almashinuvi, ya'ni muloqot jarayonidir. <sup>122</sup>U ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, jamiyatda insonlar o'rtasida aloqa o'rnatish vazifasini bajaradi. Kommunikatsiya verbal (nutqiy) va noverbal (nutqsiz) shakllarda amalga oshiriladi. Kishilar o'rtasidagi muomala jarayonida nafaqat so'z orqali, balki turli imo-ishoralar, mimika va harakatlar orqali ham muloqot qilinadi. Ayrim holatlarda nutqiy muloqot zarur bo'lmaydi. Masalan, shovqin darajasi yuqori bo'lgan ish joylarida — temirchilik, tikuvchilik, qadoqlash sexlarida ishchilar ko'pincha imo-ishoralar yordamida aloqa qiladilar. Ba'zi jamiyatlarda qadimdan so'zlashuv nutqidan kam foydalanishga intilish kuzatilgan. Jumladan, Xitoy va Koreyada konfutsiy olim-amaldorlari o'z fikrlarini asosan yozma shaklda ifodalashgan. Hukmron konfutsiy zodagonlarining tashqi qiyofasi loqayd, yuzi hissiz, ifodasiz bo'lishi odat hisoblangan. Ushbu an'analarning ayrim unsurlari bugungi koreys jamiyatida ham saqlanib qolganini kuzatish mumkin. S. M. Ervin-Trippga ko'ra, kommunikatsiya jarayonida muloqot ishtirokchilarning so'zlashuvi, ya'ni verbal muomalasi sotsiolingvistikaning asosiy obyekti hisoblanadi. U shunday yozadi: "Sotsiolingvistika ishtirokchilarning holati, mavzuga qarab, o'zaro ta'sir vazifalari va shakllarini inobatga olgan holda ularning so'zlashuvi bilan ishlaydi. Bu yerda markaziy o'rin verbal muomalaga, ya'ni so'zlashuv va uning turli muqobillariga berilgan. Shu bilan birga, tizimni to'liq tushunish uchun imo-ishoralar va tasvirlar kabi lingvistik belgilarning funksional muqobillari ham hisobga olinishi lozim. Ammo verbal muomala yuqori darajadagi tizim sifatida har doim namoyon bo'ladi va uni boshlang'ich nuqta sifatida ko'rish qulaydir." Kommunikativ vaziyat tushunchasi psixolingvistika sohasidan olingan bo'lib, u ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi nutqiy muloqot vaziyatini bildiradi. Kommunikativ vaziyat ma'lum bir tuzilishga ega bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1) So'zlovchi (adresant) – gapiruvchi shaxs;
- 2) Tinglovchi (adresat) – gapni qabul qiluvchi shaxs;
- 3) So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat;
- 4) Muloqotning emotsionalligi – rasmiy, neytral yoki do'stona kayfiyat;
- 5) Maqsad – muloqot qilinayotgan narsa yoki vazifa;
- 6) Muloqot vositasi – til yoki uning tarmoqlari (dialekt, uslub), shuningdek, imo-ishora va boshqa paralingvistik vositalar;
- 7) Muloqot usuli – og'zaki yoki yozma, kontaktli yoki masofaviy;
- 8) Muloqot joyi – suhbat o'tkazilayotgan joy.

Kommunikativ vaziyatning bu qismlari o'zgaruvchan bo'lib, ularning o'zgarishi bilan vaziyat ham o'zgaradi. Masalan, sud jarayonida sudya bilan guvohning muloqoti, odamlarning kundalik hayotdagi muloqotidan farqli ravishda, rasmiy til va qat'iy qoidalarga asoslangan bo'ladi. Psixolingvistika sohasidan o'zlashtirilgan yana bir tushuncha til egasining kommunikativ salohiyatidir. Nutqiy kommunikatsiya jarayonida

---

<sup>122</sup> Shoira Usmanova, Nargiz Bekmuxeimedova, Gulbahor Iskandarova . "Sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma, Toshkent-2014.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kishilar adresat uchun tushunarli bo‘lgan ifodalarni tuzish uchun lug‘at va grammatika kabi til vositalaridan foydalanishadi.<sup>123</sup> Biroq mazkur tilda muloqotning muvaffaqiyatli chiqishi uchun lug‘at va grammatika bilimining o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Binobarin, u yoki bu til birliklari va ularning birikuvining qo‘llanish shartlarini ham bilish lozim. Boshqacha aytganda, til egasi grammatikadan tashqari “vaziyat grammatikasi”ni ham o‘zlashtirishi lozim, ya’ni leksik birliklarning ma’nosi va gapda joylashish tartibi qoidalarini o‘zlashtirish bilan birga, so‘zlovchi va adresat orasidagi munosabat, muloqot maqsadi va boshqa omillarni ham bilishi kerak. Til egasi ayrim ijtimoiy vaziyatlarda nutq akti sifatida nimaning maqbul bo‘lishini anglashi lozim. Bular til egasining kommunikativ salohiyatini tashkil qiladi. D.Haymsning fikricha, kommunikativ salohiyat tushunchasi bir-biridan farq qiladigan ikki intellektual kategoriyaning tan olinishiga bog‘liq bo‘ladi: bilim va undan foydalanish qobiliyati. Chunonchi, bilish boshqa, qilish, amalga oshirish boshqa bir ishdir<sup>35</sup>. Masalan, til bilimi passiv bo‘lishi mumkin, ayni paytda tilni bilish, til vositalaridan foydalanish faol bo‘lishi mumkin. Kommunikativ salohiyat doirasiga odob-axloq qoidalari (o‘zbek lisoniy hamjamiyatida san va siz olmoshlari, -lar qo‘shimchasining hurmat ma’nolari, yapon va koreys lisoniy hamjamiyatlarida hurmat shakllari kategoriyasining qo‘llanilishi), bolalarning kattalar bilan (yoki kattalarning bolalar bilan) muloqot qoidalari, kommunikatsiya ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra “ijtimoiy masofa” ga rioya qilish qoidalari, shuningdek, iltimos, talab, ayblash, tahdid, va’da berish kabi turli nutq aktlarini amalga oshirish qoidalari va boshqalar kiradi. Kommunikativ qobiliyat – bu insonning boshqa odamlar bilan samarali va to‘g‘ri muloqot qilish ko‘nikmasidir. Bu qobiliyat insonning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida, ayniqsa pedagog yoki rahbar sifatida, juda muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ qobiliyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Tinglash va tushunish: Suhbatdoshni diqqat bilan eshitish va to‘g‘ri anglay olish.

O‘z fikrini aniq ifodalash: Og‘zaki yoki yozma shaklda fikrni tushunarli yetkazish.

Xulosa qilib aytganda: samarali kommunikatsiya insonning ijtimoiy hayotida, o‘qish va ish faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Har bir inson muloqotning qoidalarini tushunsa va til salohiyatini rivojlantirsa, u jamiyat bilan to‘g‘ri va samarali aloqa o‘rnatish imkoniga ega bo‘ladi. Shu sababli, kommunikatsiya nafaqat axborot almashish, balki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoirra Usmanova, Nargiz Bekmuxamedova, Gulbahor Iskandarova. “Sotsiolingvistika” o‘quv qo‘llanma, Toshkent-2014.
2. D.Elova, G.Safarova. “Sotsiolingvistika” O‘quv – uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021.
3. <https://share.google/z01Y9hWlBlW2WWd2K>

<sup>123</sup> D.Elova, G.Safarova. “Sotsiolingvistika” O‘quv – uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. <https://share.google/POpV4nM8eAaiB6RcN>

